

RESEARCH ARTICLE

The Development Of The Simultaneous Interpretation System In Pakistan

Nasiba Alisherova

3rd-year student Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

Otabek Amirov

3rd-year student Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

Gulnoza Nazrullayeva

Academic supervisor: PhD, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 192-195

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article examines the formation and development of simultaneous interpretation in Pakistan. It also highlights the role of simultaneous interpretation services in international conferences and parliamentary sessions held in the country, the expansion of this field within both the public and private sectors, and the mechanisms used to ensure high-quality interpretation across multiple languages.

KEYWORDS

translation, translation in Pakistan, simultaneous interpreting, verbatim interpreting, oral interpreting, CPEC.

INTRODUCTION

Bugungi globallashuv davrida tarjima insoniyat madaniy va ilmiy muloqotining ajralmas qismiga aylangan. Xususan, xalqaro hamkorlik, diplomatik aloqalar, ta'lim va ilmiy konferensiyalarning ko'payishi og'zaki tarjimaning, ayniqsa sinxron tarjima tizimining ahamiyatini yanada oshirdi. Sinxron tarjima — bu nutqning real vaqtda tarjima qilinishi bo'lib, u zamonaviy texnik vositalar, maxsus bilim va malaka talab etuvchi murakkab jarayondir.

XX asrda yangi turdagi tarjimaga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi, ayniqsa, 1919-yilda Millatlar Ligasi, 1945-yilda BMT kabi ko'p millatli xalqaro tashkilotlar paydo bo'lganida ehtiyoj yanada ortdi. Bir vaqtda tarjima g'oyasi amerikalik tadbirkor Eduard Filayn tomonidan ilgari

surilgan. Sinxron tarjimaning keng ommaga tanilishi 1945–1946-yillardagi Nyurnberg sud jarayonlaridan so'ng boshlandi. Bu sud jarayoni Germaniyaning sobiq rahbarlari ustidan o'tkazilgan xalqaro tribunal sifatida tarixda muhim o'rin egallagan. Ushbu voqeadan avval xalqaro uchrashuv va konferensiyalarda asosan ketma-ket tarjima usulidan foydalanilgan. Odatda bunday tadbirlarning ishchi tillari ingliz va fransuz tillari bo'lgan. Ammo sud jarayonida besh davlat — SSSR, Germaniya, Fransiya, AQSh va Buyuk Britaniya ishtirok etganligi sababli sud majlislarini ingliz, fransuz, rus va nemis tillarida o'tkazish belgilangan[1].

1948-yilda Jeneva Tarjimonlar Maktabi professional sinxron tarjimonlarni tayyorlashni boshladi.



SSSR da esa sinxron tarjimonlarni tayyorlash bo'yicha birinchi dastur – BMT Tarjimonlik Kurslari ilk bor 1962-yilda M.Torez nomidagi Moskva Davlat Pedagogika Institutida tashkil etilgan[2].

Pokistonda sinxron tarjimaning yuzaga kelishi "Jalsa Salana" (ya'ni, urducha "jalsa" — majlis, va "salana" — yillik so'zlaridan olingan bo'lib, "Yillik Anjuman" degan ma'noni anglatadi hamda Ahmadiya musulmon jamoasining rasmiy yillik yig'ini hisoblanadi) bilan bevosita bog'liq.

1947-yil Hindistondan ajralib chiqqanidan so'ng ushbu anjumanga Pokiston mezbonlik qilishni boshladi. Majlis tarixan Rabvoda (hozirgi Chenab Nagar) bo'lib o'tgan, biroq 1980-yillardan boshlab hukumat cheklavlari sababli muntazam o'tkazilmayapti. Vaqt o'tgani sayin xorijiy mamlakatlardan keladigan Ahmadiylar Rabvodagi Jalsa Salanaga tashrif buyura boshlashdi, ammo barcha nutqlar urdu tilida bo'lganligi sababli anjuman jarayonida til bilan bog'liq ko'plab muammolar yuzagaa keldi.

1973-yili Hazrati Xalifatul Masih III "Fazle-Umar" jamg'armasiga nutqlarning sinxron tarjimasini xorijiy

mehmonlar uchun qanday taqdim etish mumkinligini o'rganishni buyurdi. 1980-yil sentyabr oyida "Fazle-Umar" jamg'armasi boshqaruv a'zolariga ikkita prototip tizimni namoyish qildi. Ular tizimlarni ma'qulladilar va 100 ming rupiy miqdorida grant berishni tasdiqlashdi. Ushbu grant to'rtta shartni o'z ichiga oldi. Unga ko'ra ikkita erkaklar va ikkita ayollar uchun majlislar zali bo'lishi hamda ikkitasi ingliz va ikkitasi indonez tillariga mo'ljallangan bo'lishi kerak edi [3].

Osiyo Parlamentlar Assambleyasi keyingi eng yirik anjumanlardan hisoblanadi, 2013-2015-yillarda Pokiston ikki marta OPAning yalpi sessiyalariga muvaffaqiyatli mezbonlik qilgan. 2013-yil, Islomobodagi 6-yalpi sessiya davomida Osiyo Parlamentini tuzish vazifasini ilgari suradigan maxsus qo'mita tashkil etish taklifi batafsil muhokama qilingan va bu g'oya "Islomobod Deklaratsiyasi 2013" ga kiritilgan. 2014-yil, Lahordagi 7-yalpi sessiyada esa "Osiyo Parlamentini yaratish bo'yicha maxsus qo'mita" (SCCAP) ni tashkil etish rasmiy ravishda ma'qullangan. Ushbu tadbirda 26 ta xalqaro mamlakatdan 100 dan ortiq delegatlar ishtirok etdi [4].

Pokiston Respublikasi ko'p tilli jamiyat sifatida o'zida turli madaniyat va tillarni mujassam etadi. Mamlakatda urdu, ingliz, panjob, sindhi, pushtu va boshqa tillarning keng qo'llanilishi sinxron tarjimaga bo'lgan ehtiyojni tabiiy ravishda kuchaytirgan.

Pokistonda sinxron tarjima amaliyoti ayniqsa sud tizimi misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. 2025-yilda Lahor Oliy Sudi Irfan (Pomi) ishi bo'yicha ko'rib chiqilgan materiallarda guvohlarning ingliz tilida qayd etilgan bayonotlari keyinchalik, sud o'tib bo'lgach, sud majlisidan tashqarida, huquqshunoslik talabasi tomonidan tarjima qilingani aniqlangan. Sud esa bunday tartib amaldagi qonunchilik talablariga mos kelmasligini eslatib, dalillar guvoh so'zlagan tilda sudya huzurida yoki hech bo'lmasa aynan sud majlisi davomida tarjima qilinishi shartligini ta'kidladi. Shu munosabat bilan, 2025-yilda Lahore High Court (LHC) tomonidan qayta ishlab chiqilgan qarorni ko'rish mumkin. Ushbu qarorga ko'ra, agar guvohning bayonoti ingliz tilida bo'lsa va qolganlar uni tushunmasa, bayonot sud zalida guvoh, ayblanuvchi va sud hay'ati ishtirokida urdu tiliga bir vaqtda tarjima qilishi majburiy ekanligi belgilab qo'yildi [5].

Pokistonning xalqaro maydondagi roli o'sib

borayotgani ortidan iqtisodiy, energetik va transport sohasida amalga oshirilayotgan yirik loyihalari nafaqat mintaqaviy integratsiyani, balki tarjima va lingvistik xizmatlarning yangi sanoati shakllanishiga turtki bo'ldi. COVID-19 pandemiyasidan keyin Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar orqali o'tkaziladigan virtual va gibrid yig'ilishlar soni ortib bormoqda. Bu o'z-o'zidan "onlayn sinxron tarjima" bozorini yanada kengaytirdi. Xususan, sinxron va so'zma-so'z tarjima xalqaro delegatsiyalar o'rtasidagi samarali muloqot va tomonlar uchun o'zaro manfaatli yirik xalqaro investitsion loyihalar paydo bo'lishida ko'rinmas lekin asosiy vositabo'lib xizmat qildi.

Bugungi kunda mamlakatda CPEC, TAPI, CASA-1000 kabi yirik xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda:

Xitoy–Pokiston Iqtisodiy Koridori (CPEC) — ushbu loyiha doirasida transport, energetika, infrastruktura va sanoat sohalari rivojlantiriladi. Bu jarayonlar to'g'ri va aniq yakunlanishi uchun tarjimaning o'рни beqiyos. Pokistonning rasmiy tillari urdu va ingliz tillari ekanligini inobatga olsak, urdu, ingliz va xitoy tillaridagi sinxron tarjima yuqori darajadagi yig'ilishlarda xalqaro delegatsiyalar o'rtasida bir vaqtning o'zida muloqotni ta'minlaydi.[6] Shuningdek ushbu hamkorlik doirasida 2025—2029-yillarda har ikki mamlakat nashrlarining klassik asarlarni tarjima qilish bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash, qo'llab-quvvatlash ham nazarda tutilgan. Har ikki davlatning nashriyotlari va madaniy tashkilotlari bir-birining mamlakatida o'tkaziladigan xalqaro kitob yarmarkalarida ishtirok etishga hamda "Belt and Road Publishing Cooperative" nashriyotchilik hamkorligi doirasidagi ishlarda faolroq qatnashishga kelishilgan. Tomonlar o'z nashriyotlarini mualliflik huquqlariga rioya qilgan holda hamkorlikni kuchaytirishiga, qo'shma nashrlar amalga oshirishiga yordam beradi [7].

2023 International Conference on Climate Resilient Pakistan – nomi ostida Pokiston hukumati va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamkorligida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda 44 ta mamlakatdan 450 ta hukumat, davlat va xususiy sektor rahbarlari hamda fuqarolik jamiyati vakillari ishtirok etgan [8]. Tabiiyki konferensiyada sinxron tarjimadan foydalanilgan va u rasmiy BMT tillariga (inglizcha, fransuzcha, ispancha, ruscha, arabcha, xitoycha)

sinxron tarjima bo'lgan.

Pokistonda tarjima va sinxron tarjima sohasi nisbatan yangi va keng rivojlanayotgan yo'nalish bo'lganligi sababli ba'zi universitetlarda tarjimashunoslikning bakalavr darajasi bor, lekin sinxron tarjima bo'yicha maxsus kabinalar har doim ham mavjud emas. Mamlakatda ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi bir nechta oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritadi. Ulardan eng mashhuri NUML – Zamonaviy Tillar Milliy Universiteti bo'lib, umumiy 23 ta milliy va xorijiy tillar bo'yicha bakalavr va magistr dasturlarida tarjimonlar tayyorlaydi [9].

IIUI — Islomobod Xalqaro Islom Universitetida ham tarjimonlik va sinxron tarjima bo'yicha turli qisqa muddatli o'quv kurslarini bor hamda ushbu sohaga oid alohida bo'limlari mavjud [10].

Xulosa: Pokistonda sinxron tarjima tizimi xalqaro anjumanlar va ko'p tilli konferensiyalar ehtiyojining ortishi bilan asta-sekin shakllanib, rivojlanib bormoqda. Bu tizim mamlakatning global jarayonlarda faol ishtirok etishiga, turli davlat vakillari bilan samarali aloqa o'rnatishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga tibbiyot, energetika, infrotuzilma va sanoat kabi sohalardagi xalqaro aloqalar tarjima yo'nalishlarini yanada chuqurroq o'rganishga yetaklaydi. Sinxron tarjima Pokiston uchun xalqaro hamkorlikni kengaytirish va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlovchi muhim vositaga aylangan.

Mavjud adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, Pokistonda sinxron tarjimaning aniq tarixi va rivojlanishi haqida akademik manbalar nisbatan cheklangan. Shu bois, maqolada mavjud bir qancha asosiy manbalar va soha mutaxassislarining akademik tadqiqotlarini tahlil qilgan holda mavzuni yoritishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] – History of Simultaneous Interpretation (29-01-2023), Raufov Miraziz Mustafakulovich [archive-1675947551.pdf](https://eipublication.com/index.php/eijmrms/1675947551.pdf)
- [2] – History of Simultaneous Interpretation (29-01-2023), Raufov Miraziz Mustafakulovich [archive-1675947551.pdf](https://eipublication.com/index.php/eijmrms/1675947551.pdf)
- [3] – [Jalsa Salanadagi Hosil bayrami - Sinxron](#)

[tarjimalarning qisqacha tarixi](#)

[4] – Senate of Pakistan / www.asianparliament.org

[5] - [Ensure translation of evidence into Urdu simultaneously: LHC - Pakistan - Business Recorder](#)

[6] - [CPEC | China-Pakistan Economic Corridor \(CPEC\) Secretariat Official Website](#)

[7] - Action Plan to Foster an Even Closer China-Pakistan Community with a Shared Future in the New Era between the Government of the People’s Republic of China and the Government of the Islamic Republic of Pakistan (2025-2029), 18b, [ActionPlan2025-2029.pdf](#)

[8] - [Overview: International Conference "Climate Resilient" Pakistan 2023 - TDI](#)

[9] - [NUML Bureau of Translation & Interpretation \(BT&I\)](#)

[10] - [International Islamic University Islamabad – University website](#)